



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 18 - yanvar

19-8-121-Q/22

Termiz shahar hokimligi

**Oltinchi chaqiriq Xalq deputatlari
Termiz shahar Kengashining qirq
uchinchi sessiyasini chaqirish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga muvofiq

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Oltinchi chaqiriq Xalq deputatlari shahar Kengashining qirq uchinchi sessiyasi 2022-yil 25-yanvar kuni soat 15:00 da shahar hokimligining majlislar zalida chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 17-yanvardagi 5633-sonli Farmonining shahardagi ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Termiz shahar Xalq qabulxonasi mudirining axboroti.

Ma‘ruzachi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Termiz shahar Xalq qabulxonasi mudiri Sh.Saodatov.

2.2. Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishni amalga oshirishga doir faoliyati yuzasidan shahar sudlari raislarining axboroti to‘g‘risida.

Ma‘ruzachilar: Termiz tumanlararo iqtisodiy sudi raisi D.Jumayev,

Termiz tumanlararo ma'muriy sudi raisi A.Abdulakimov,

Jinoyat ishlari bo'yicha shahar sudi raisi I.Shaymanov,

Fuqarolik ishlari bo'yicha Termiz tumanlararo sudi raisi J.Nafasov.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan Termiz shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 9-sonli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan va 26-sonli umumta'lim maktablari direktor lavozimiga munosib nomzodni tasdiqlash to'g'risida.

Ma'ruzachilar: 26-sonli umumta'lim maktabi direktori nomzodi uchun I.Ziyotov, U.Kadirova.

9-sonli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab direktori nomzodi uchun J.Baxramov, B.Toshpo'latov.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 14-dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 55-sonli bayonining 44-bandi ijrosini ta'minlash to'g'risida.

Mas'ul: Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi.

2.5. Deputatlik vakolatini muddatidan oldin to'xtatish to'g'risida.

Mas'ul: Reglament va deputatlik odobi bo'yicha doimiy komissiyasi.

2.6. Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisini lavozimdan ozod etish va lavozimga tayinlash to'g'risida.

2.7. Xalq deputatlari shahar Kengashining bo'shab qolgan o'ringa deputat saylovini o'tkazish to'g'risida.

2.8. Boshqa masalalar.

3. Oltinchi chaqiriq Xalq deputatlari shahar Kengashining qirq uchinchi sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ishlarini muvofiqlashtirib borish Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi kotibiyati mudiri F.Abjalov zimmasiga yuklansin.

Hokim



Xudayberdiyev I. B.